

SIFAT SO‘Z TURKUMI VA UNING XALQ DOSTONLARIDA BERILISHI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

dotsenti v.b, fffd (PhD)

elmurodjumayev272@gmail.com

Jamolova Shaxinabonu Adxam qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

jamolovashahinabonu@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek tilidagi sifat so‘z turkumining nazariy asoslari, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Unda sifatlarning ma’no turlari (asliy va nisbiy), tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda, qo‘shma, juft, takroriy), darajalari (oddiy, qiyosiy, ozaytirma, orttirma) hamda ularning yasalish usullari va gapdagi vazifalari izohli misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, sifatlarning morfologik xususiyatlari, otlashish hodisasi va nutqdagi stilistik imkoniyatlari haqida ilmiy mulohazalar berilgan. Tadqiqotning amaliy qismida xalq og‘zaki ijodining yirik namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni materialini asosida sifatlarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil etilgan. Dostonda uchraydigan sifatlar orqali qahramonlarning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, xarakteri hamda ijobiy va salbiy obrazlarning ajratilishi yoritib berilgan. Ayniqsa, epitetlar, rang-tasvir sifatleri, qo‘shma va takroriy sifatlar vositasida yaratilgan badiiy tasvirning o‘ziga xosligi ochib berilgan. Maqola yakunida sifatlar nafaqat grammatik birlik, balki badiiy matnda tasviriylik va emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: sifat soʻz turkumi, asliy sifat, nisbiy sifat, sifat darajalari, sodda sifat, qoʻshma sifat, juft sifat, takroriy sifat, otlashgan sifat, badiiy tasvir, epitet, “Alpomish” dostoni, xalq ogʻzaki ijodi, stilistik xususiyatlar.

Abstract: The theoretical foundations, lexical-semantic and grammatical features of the adjective word class in the Uzbek language are systematically analyzed. It covers the types of meaning (original and relative), types according to structure (simple, compound, dual, repeated), degrees (simple, comparative, diminutive, augmentative), as well as their formation methods and functions in a sentence based on explanatory examples. Also, scientific considerations are given about the morphological features of adjectives, the phenomenon of compounding and stylistic possibilities in speech. In the practical part of the study, the features of the use of adjectives are analyzed based on the material of the epic poem "Alpomish", which is a large example of folk oral art. The external appearance, inner world, character of the heroes, and the distinction between positive and negative images are highlighted through the adjectives found in the epic. In particular, the uniqueness of the artistic image created using epithets, color-image adjectives, compound and repeated adjectives is revealed. At the end of the article, it is argued that adjectives are not only grammatical units, but also an important tool for enhancing imagery and emotional-expressiveness in a literary text.

Keywords: adjective phrase, original adjective, relative adjective, degrees of adjective, simple adjective, compound adjective, double adjective, repeated adjective, compound adjective, artistic image, epithet, "Alpomish" epic, folk oral art, stylistic features.

KIRISH. Oʻzbek tilida soʻz turkumlari nutqning asosiy birliklari hisoblanadi. Har bir soʻz turkumi oʻziga xos maʼno va grammatik xususiyatlarga ega, shulardan biri sifat soʻz turkumidir. Sifatning umumiy taʼrifi, uning leksik va grammatik xususiyatlari, soʻroq shakllari (“qanday?”, “qanday holatda?”, “qanchalik?”), razryadlari (doimiy va oʻtkinchi belgilar), darajalari (oddiy, orttirma, taqqoslov va yuqori daraja) izohli misollar orqali

tushuntiriladi [1:134]. Sifat shaxs va narsalarning belgisi, xususiyatini, rangini, hajmi, shaklini va boshqa jihatlarini bildiradi. Sifatlar nutqimizni boyitadi, tasirini aniq va tasirchan qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI: O‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumi ko‘plab olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, R. Sayfullayeva va B. Mengliyevlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatlarning grammatik kategoriyalari, ularning ma’no turlari, darajalari hamda tuzilishiga ko‘ra tasnifi ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu manba sifatlarning nazariy jihatdan izchil tasnifini berishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning nutqdagi vazifalari va qo‘llanish doirasi keng tahlil qilingan. B. Mengliyev va O‘. Xoliyorov tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmada esa sifatlarning amaliy qo‘llanishi, ularning nutq boyitishdagi o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tiladi. N. Mahmudovning maktab darsliklarida sifatlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularni o‘rgatish metodikasi hamda sodda va tushunarli misollar orqali izohlash usullari bayon etilgan. Bu esa sifatlarning boshlang‘ich bosqichda o‘zlashtirilishida muhim manba hisoblanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi doirasida O. Madayevning tadqiqotlarida dostonlarda sifatlarning badiiy tasvir yaratishdagi roli, ayniqsa epitetlar orqali qahramon obrazini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. T. Mirzayev tomonidan nashrga tayyorlangan “Alpomish” dostoni variantlari esa amaliy tahlil uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asarda sifatlarning epik tasvir, qahramon xarakteri va milliy estetik qarashlarni ifodalashdagi o‘rni yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, sifatlar nafaqat grammatik kategoriya sifatida, balki badiiy matnning muhim tasviriy vositasi sifatida ham keng o‘rganilgan. Biroq ularning aynan xalq dostonlari, xususan “Alpomish” dostoni misolida kompleks tahlili yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur tadqiqotda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida sifat so‘z turkumining nazariy jihatlari izohlandi va tizimlashtirildi. Shuningdek, tahlil va sintez metodlari asosida sifatlarning ma’no turlari,

darajalari va tuzilish xususiyatlari alohida-alohida o‘rganilib, umumiy xulosalar chiqarildi. Matn tahlili (kontekstual tahlil) metodi orqali “Alpomish” dostoni matnidan olingan misollar asosida sifatlarning qo‘llanishi, ularning badiiy-estetik vazifalari tahlil qilindi. Bundan tashqari, qiyosiy metod yordamida nazariy manbalarda keltirilgan sifat tasnifi bilan doston matnidagi real qo‘llanish holatlari o‘zaro solishtirildi. Tadqiqotda, shuningdek, stilistik tahlil metodi qo‘llanilib, sifatlarning badiiy tasvir yaratishdagi, qahramon xarakterini ochib berishdagi va emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishdagi roli aniqlandi. Mazkur metodlar uyg‘unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

MUHOKAMA. Sifatlar ma’nosiga ko‘ra 2 ta turga bo‘linadi[2:127]. 1. Asliy sifatlar - shaxs va narsalarning bevosita belgisini bildiradi. Masalan: katta, chiroyli, uzun, oq, kichik, qora.

2. Nisbiy sifatlar - shaxs va narsalarning bevosita belgisini bildirib, darajalanish xususiyatiga ega bo‘lmagan sifatlardir. Masalan: suvli, kuzgi, devoriy kabi.

O‘zbek tilida so‘z turkumlari nutqning asosiy birliklari hisoblanadi. Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos ma’no va gramatik xususiyatlari mavjud. Shulardan biri sifat so‘z turkumidir. Sifatlar nutqimizni boyitadi, tasirini aniq va tasirchan qiladi[3:164]. Nisbiy sifatlar asosan qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘ladi. Sifat belgining miqdor va darajasini ham belgilaydi.

1. Oddiy daraja -belgining oddiy holati. Masalan; katta, yaxshi, baland.
2. Qiyosiy daraja - (-roq qoshimchasi bilan yasaladi). Masalan: kattaroq, yaxshiroq, balandroq, kichikroq.
3. Ozaytirma daraja-belgining miqdordan kam ekanligini bildiradigan sifatlar hisoblanadi. Masalan: ko‘kish, qoramtir.
4. Ortirma daraja-belgining kichaytirilgan shakli. Masalan: eng baland, juda chiroyli, oppopq, qip-qizil.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili “(Mualliflar: R.Sayfullayeva va boshqalar) Morfologiya

bo'limida sifatlarning grammatik katagoriyalari aynan shu tartibda berilgan. "O'zbek tili gramatikasi" kitobida sifatlarning yasalishi va dostonlar tilidagi ekspressiv imkoniyatlar ushbu manbadan batafsil yoritilgan[4:162]. Bu yerda sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari (soda, murakkab) va ma'no darajalari (oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma) qoidalari keltirilgan.

Sifat tuzilishiga kora turlari 4 turga bo'linadi.

1. Sodda sifat-bir asosdan iborat bo'ladi. Masalan; oq, yashil, keng, tor.
2. Qo'shma sifat-ikki yoki undan ortiq so'z qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Masalan: ochiqko'ngil, xushfe'l.

3. Juft sifat-takror yoki juft holda keladi. Masalan:katta-kichik, yaxshi - yomon, uzun - kalta .

4. Takroriy sifatlar-bir so'zni takrori yoki tovush o'zgarishi orqali takrorlovchi so'zlardir.

Ba'zan sifat ot o'rnida keladi. Bunga otlashgan sifat deyiladi[5:11].

Masalan: Yaxshi yomonni yengadi. Kattalar kichiklarga yordam beradi.

Bu yerda yaxshi, yomon, katta, kichik so'zlari ot vazifasida kelgan.

Sifat yasovchi qo'shimchalar juda muhim .

Qo'shimchalar:

Misollar:

-li

suvli, tog'li

-siz

uysiz, tuzsiz

-kor

lalmikor

-dor

ma'nodor

-chan

ishchan

Sifat odatda o'zgarmaydi. Kelishik, egalik qo'shimchasini olmaydi. Ammo otlashganda qo'shimcha oladi. Masalan: yaxshilarni, kattalarga.

Badiiy matnda sifatlar tasviriylkni oshiradi. Masalan: Oppoq qorli keng dala sukunatga cho‘mgan edi.

Omonilla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki poitik ijodi” darsligida dostonlarda sifatlarning qahramon portertini yaratishdagi o‘rni ko‘rsatilgan[6:119]. Masalan, qalamqosh, sheryurak.

“Alpomish “dostonida ishlatilgan sifat so‘z turkumi o‘ziga xos aks etgan. “Alpomish” dotonida sifatlar shunchaki so‘z emas, balki qahramonlarning xarakterini, xalqning estetik qarashlarini va dostonning epik ko‘lamini belgilovchi asosiy vositadir . Barchinning ta’rifi keltirilgan bu yerda pistaog‘iz, bodomqovoq, qalamqosh [7:22]kabi murakkab sifatlar uchraydi

Dostonda ayrim qahramonlar yoki narsalar doimo ma’lum bir sifat bilan birga keladi. Bu tinglovchining ongida qahramon haqida barqaror tassavur uyg‘otadi.

Alpomishga nisbatan: Alp → Sulton →sher →Alpomish;

Barchinga nisbatan: Oydin →gul→oqila →Barchin.

Qahramonlarning portretini chizishda rang - tasvir va shakl - shamoyil sifatlaridan mahorat bilan foydalaniladi. Barchinning go‘zalligi: qalamqoshli, pistaog‘iz, bodomqovoq, guldasdabel. Alpomishning kuchi: sandiq ko‘krakli, she’r kelbatli, yo’lbars bilakli.

Dostonda ijobiy va salbiy qahramonlarni ajratishda sifatlar asosiy “bo‘yoq“ vazifasini bajaradi. Bu emotsional - ekspressiv sifatlar. Ijobiy ma’no: vafodor, dono, sadoqatli; Salbiy ma’no: Yovuz, nokas, xoin.

Alpomish dostonida sifatlarning tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlari uchraydi.

1. Sodda sifatlar: mard (Alpomishga nisbatan), pok (niyat), sho‘r (peshona).
2. Qo‘shma sifatlar: sheryurak, qalamqosh, bodomqovoq, qushqanot, qorater, samonrang, oliyhimmat.

3. Juft sifatlar: egri-bugri, baland -past, uzoq-yaqin.

4. Takroriy sifatlar: uzun-uzun qop-qora tog'lar, dasta -dasta gullar, xil-xil matolar, baland-baland cho'qqilar.

NATIJA. Tadqiqot jarayonida o'zbek tilidagi sifat so'z turkumining nazariy va amaliy jihatlari tizimli ravishda tahlil qilindi hamda quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchi, sifatlarning ma'no turlari (asliy va nisbiy) hamda darajalari (oddiy, qiyosiy, ozaytirma, orttirma) til tizimida aniq funksional yuklama bajarishi aniqlandi. Asliy sifatlar bevosita belgini ifodalasa, nisbiy sifatlar predmetning boshqa predmetga munosabatini bildirib, ko'proq qo'shimchalar orqali hosil bo'lishi kuzatildi.

Ikkinchi, sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda, qo'shma, juft, takroriy) nutqda turli stilistik vazifalarni bajarishi asoslandi. Ayniqsa, qo'shma va takroriy sifatlar badiiy matnda tasviriylkni kuchaytiruvchi muhim vosita ekanligi aniqlandi.

Uchinchi, sifatlarning gapdagi sintaktik vazifalari (aniqllovchi, kesim, ba'zan ega va to'ldiruvchi) keng qo'llanish doirasiga ega ekanligi, shuningdek, otlashish hodisasi orqali mustaqil gap bo'lagi sifatida ishlatilishi tasdiqlandi.

To'rtinchi, "Alpomish" dostoni tahlili asosida sifatlarning badiiy-estetik vazifasi yaqqol namoyon bo'ldi. Dostonda sifatlar qahramonlarning tashqi ko'rinishi (qalamqosh, bodomqovoq), jismoniy kuchi (sheryurak, yo'lbarsbilak) va ichki fazilatlarini (vafodor, sadoqatli) ifodalashda faol qo'llanilgan.

Beshinchi, epitetlar va rang-tasvir sifatlari dostonning obrazlar tizimini shakllantirishda asosiy vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Takroriy va kuchaytiruvchi shakllar (qop-qora, baland-baland) esa emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qilishi kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sifat soʻz turkumi nafaqat grammatik birlik, balki xalq dostonlarida badiiy tasvir va obraz yaratishning muhim vositasi ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

XULOSA. Oʻzbek tilidagi sifat soʻz turkumining nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama yoritildi. Sifatlarning maʼno turlari, darajalari, tuzilish xususiyatlari hamda gapdagi vazifalari til tizimida muhim oʻrin egallashi ilmiy asosda koʻrsatildi. Sifatlarning nafaqat predmet belgisini ifodalovchi grammatik birlik, balki nutqning aniqligi, obrazlilik va taʼsirchanligini taʼminlovchi vosita ekanligi aniqlandi. “Alpomish” dostoni misolida sifatlarning badiiy matndagi oʻrni tahlil qilinib, ular qahramonlarning tashqi koʻrinishi, ichki kechinmalari va xarakterini ochib berishda muhim tasviriy vosita sifatida xizmat qilishi isbotlandi. Ayniqsa, epitetlar, qoʻshma va takroriy sifatlardan orqali yaratilgan obrazlar dostonning badiiy qimmatini oshirishi taʼkidlandi.

Xulosa qilib aytganda, sifat soʻz turkumi oʻzbek tilining muhim tarkibiy qismi boʻlib, u nafaqat grammatik tizimda, balki xalq ogʻzaki ijodida ham estetik va ekspressiv imkoniyatlarga ega. Shu bois sifatlarni chuqur oʻrganish va ularning badiiy matndagi qoʻllanishini tadqiq etish tilshunoslikda dolzarb yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Joʻrayeva Sevinch Shavkatovna Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Sifat soʻz turkumini oʻtish boʻyicha tavsiyalar (8-sinf misolida) www.pedagoglar.org 43-toʻplam 3-qism May 2025. 134-b.
2. X. Жамолхонов. Хозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: “Фан”, 2005. 127-b.
3. B.Mengliyev, Oʻ. Xoliyorov. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. -Toshkent: Fan, 2007. 164-b.
4. R. Sayfullayeva, B Mengliyev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”. -Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2009 yil. 162-b.
5. N. Mahmudov. Ona tili: 7-sinf uchun darslik. -Toshkent: Maʼnaviyat, 2017. 11-b.

6. O. Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki poitik ijodi (Nazariy kurs matni). ”. -Toshkent: “Fan”, 1999 yil. 119-b.
7. “Alpomish” (Nashrga tayyorlovchi T. Mirzayev). -Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1991. 22-b.